

**“O‘ZLITINEFTGAZ” AJ HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.23/25.08.2021.T.136.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

YESHMURATOV ANVAR BALTABAYEVICH

**OBSAD KOLONNALARNI SEMENTLASHDA KOLONNA ORTIDAGI
SEMENT HALQASINI MUSTAHKAMLIGINI OSHIRISHNING CHORA-
TADBIRLARINI ISHLAB CHIQISH**

04.00.11 – Quduqlarni burg‘ilash va o‘zlashtirish texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Yeshmuratov Anvar Baltabayevich

Obsad kolonnalarni sementlashda kolonna ortidagi sement halqasini mustahkamligini oshirishning chora-tadbirlarini ishlab chiqish..... 3

Ешмуратов Анвар Балтабаевич

Разработка мер по повышению герметичности затрубного пространства при цементировании обсадных колонн..... 21

Eshmuratov Anvar Baltabayevich

Development of measures to improve the tightness of the annular space for cementing casing columns..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 42

**“O‘ZLITINEFTGAZ” AJ HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.23/25.08.2021.T.136.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

YESHMURATOV ANVAR BALTABAYEVICH

**OBSAD KOLONNALARNI SEMENTLASHDA KOLONNA ORTIDAGI
SEMENT HALQASINI MUSTAHKAMLIGINI OSHIRISHNING CHORA-
TADBIRLARINI ISHLAB CHIQISH**

04.00.11 – Quduqlarni burg‘ilash va o‘zlashtirish texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/T3070. raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.liting.uz) va «ZiyoNET» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Umedov Sherali Xalloqovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Raximov Akbarxo'ja Kamilovich
texnika fanlari doktori, professor

Nurmatov Usan Dovurovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi "O'ZLITINEFTGAZ" AJ huzuridagi DSC23/25.08.2021.T.136.01 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning 2024 yil «14» 02 soat 14⁰⁰ daqiqa majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100029, Toshkent sh., Taras Shevchenko ko'chasi, 2-uy. Tel.: (+99871)280-67-00; faks: (+99871)256-66-48; e-mail: liting@liting.uz).

Dissertatsiya bilan "O'ZLITINEFTGAZ" AJ Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ _____ -raqami bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 100029, Toshkent sh., Taras Shevchenko ko'chasi, 2-uy. Tel.: (+99871)280-67-00; faks: (+99871)256-66-48; e-mail: liting@liting.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «01» 02 kuni tarqatildi.
(2024 yil «01» 02 daqiqa № 1 - raqamli revestr bayonnomasi).






U.S. Nazarov
Ilmiy darajalar beruvchi
bir martalik Ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

T.O. Komilov
Ilmiy darajalar beruvchi bir
martalik Ilmiy kengash kotibi,
falsafa doktori (PhD)



A.A. Zakirov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi bir martalik Ilmiy seminar
raisi texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda neft va gaz skvajinalarini qurishni takomillashtirish neft va gaz qazib olishning innovatsion texnologiyalarini joriy etish, obsad kolonnalarni mustahkamlash sifatini oshirish orqali amalga oshirilmoqda. Dolzarb muammolardan biri quvur orti muhitini izolyatsiyasi va qatlamlarni bir-biridan ajratishning ishonchlilikini ta'minlashdir. Skvajinani uzoq muddatli ishlatishdagi muvaffaqiyati, asosan, skvajina stvolini mustahkamlashning ishonchlilik darajasiga bog'liq. Hozirgi vaqtda skvajinaga tushirilgan obsad kolonnalarni sementlashdan so'ng quvur orti qismida neft-gaz namoyonlanishi tez-tez sodir bo'lmoqda. Hozirgi kunda Ustyurtning ba'zi konlarida skvajinalarni mustahkamlash holatlari tahlil qilinganligi munosabati bilan sementlash texnologiyasini takomillashtirish, hamda tamponaj qorishmalarining yangi tarkiblarini ishlab chiqish zarurati muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Dunyoda hozirgi vaqtda qatlamlarni samarali ajratish va tamponaj toshining obsad kolonna hamda tog' jinsi bilan yaxshi yopishishi uchun tamponaj toshining o'tkazuvchanligini kamaytirish maqsadida uning mustahkamligini oshirish bo'yicha maqsadli tadqiqotlar olib borilmoqda. Shundan kelib chiqib, Ustyurt regionidagi konlarning ko'p qatlamli uyumlari sharoitida halqasimon muhitning germetikligini oshirish uchun yuqori mustahkamlikdagi sement qorishmasini yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda neft va gaz skvajinasining uzoq muddat ishlashini ta'minlash uchun obsad kolonnalarining kolonna ortidagi sement halqasini mustahkamligini oshirish, obsad kolonnalarining sementlash texnologiyasini doimiy ravishda takomillashtirish va mustahkamligini oshirishning chora-tadbirlarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "...ishlab chiqarishga keng ko'lamda energiya tejamkor texnologiyalarni tatbiq etish, iqtisodiyotning tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshirish, shuningdek sanoat tarmoqlari faoliyatini yangi texnologik yuqori pog'onalarga ko'tarish uchun ishlab chiqarishni rag'batlantirish siyosatini davom ettirish.." ¹ bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, neft va gaz sanoati oldida turgan ustuvor va dolzarb vazifa bo'lgan yangi texnologiya yaratish va obsad kolonnalarni sementlash uchun yuqori mustahkam sement qorishmalari tarkibini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi №PF-4947 son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 9-mart 2017 yildagi №PQ-2822 "2017-2021-yillarda uglevodorod xomashyosi qazib olishni ko'paytirish dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi, 30-iyun 2017-yildagi №PQ-3107 "Neft-gaz tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 9 iyul 2019 yildagi №PQ-4388 "Aholi va iqtisodiyotni energiya resurslari bilan barqaror ta'minlash, neft-gaz tarmog'ini moliyaviy sog'lomlashtirish va uning boshqaruv tizimini

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni.

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublikadagi fan va texnologiyalar rivojlanishining VII “Yer to‘g‘risidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral xomashyoni qayta ishlash)” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi. Tamponaj qorishmasini kolonna va tog‘ jinsi bilan yopishishini yaxshilash uchun o‘tkazuvchi tog‘ jinslarda obsad kolonnalarni mustahkamlash sifatini o‘rganishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlar, bu jarayonlarni samarali bajarish tamponaj toshining mustahkamligini oshirishga imkon beradigan turli to‘ldiruvchilarning ta’sir mexanizmiga bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi.

Obsad kolonnalarini mustahkamlashda tamponaj qorishmasini qo‘llash texnologiyasini rivojlantirishga chet el olimlari, tadqiqotchilardan: N.S.Ludwig, I.Hansen, K.Fudji, V.Kondo, F.A.Agzamov, O.K.Angelopulo, R.G.Axmadeyev, E.V.Babayan, A.I.Bulatov, I.I.Vaxrameyev, B.S.Danyushevskiy, V.I.Krilov, B.M.Kurochkin, M.R.Mavlyutov, A.X.Mirzadjanzade, N.I.Nikolayev, V.N.Polyakov, K.V.Strijnev, P.M.Tyan, Z.Z.Sharafutdinov, A.A.Yakovlev kabilar o‘z hissalarini qo‘shganlar.

Obsad kolonnalar bilan skvajinalarni mustahkamlashda tamponaj qorishmasining yutilish sabablari va ularni berkitish texnologiyalarini o‘rganishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar quyidagi mahalliy olimlarning ismlari bilan bog‘liq: A.K. Raximov, U.J. Mamajanov, J.A. Akilov, A.A. Raximov, Sh.X. Umedov, A.M. Aminov, M.Yu. Matyakubov, Ye.A. Likov, R.J. Pulatov, O.S. Omonov, E.U. Mamajanov, A.M. Murtazayev, D.R. Maxamatxodjayev va boshqalar.

Hozirgi vaqtgacha ilmiy adabiyotlarda obsad kolonnalarni mustahkamlashda umumiy yondashuvdan va qatlamlarni ajratishning mavjud texnologiyalaridan foydalanish, shuningdek, sementlashda murakkabliklarni bartaraf etish bo‘yicha yagona fikr o‘z aksini topmagan. Yuqorida keltirilganlarga ko‘ra, obsad kolonnalarni mustahkamlashda, sementlashdagi murakkabliklarni bartaraf etishda qo‘llaniladigan mahalliy xomashyo asosida sementlashni takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlarni olib borish zaruriyati tug‘ildi. Bu esa samaradorlik va qulaylikni inobatga olgan holda obsad kolonnalarni sementlashning o‘ziga xos bo‘lgan masalalaridan biri hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti hamda “BURG‘ICHI BIZNES” O‘IChKning ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № I-2016-8-1. “O‘zbekneftgaz” AJ maydonlarida neft va gaz skvajinalarini mustahkamlash uchun mahalliy xomashyo asosida polimer tamponaj qorishmasini joriy etish” va № 05/14. “Sho‘rtan” NGQChB maydonlarida suv oqimini bartaraf etish uchun yengil tamponaj qorishmasini ishlab chiqish va sinovdan o‘tkazish” loyiha va xo‘jalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi skvajinalarni mustahkamlash sifatini oshirish hamda

qatlamlarni samarali ajratish uchun yuqori mustahkamli tamponaj qorishmasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

halqa muhitining germetikligini oshirish uchun kalsiy oksidli retseptura ishlab chiqish;

tamponaj toshining mustahkamligini ta'minlash uchun porfirritni qo'llab, tamponaj qorishmasining tarkibini ishlab chiqish;

obsad kolonna va tog' jinsi bilan yopishishni mukammallashtirish maqsadida tamponaj qorishmasining yangi tarkibini taklif etish;

qatlam oraliqlarini ajratish uchun mahalliy materiallar asosida tamponaj qorishmasining samarali tarkibini yaratish;

tamponaj qorishmalarining reologik va fizik-mexanik xususiyatlarini tadqiq qilishdan olingan natijalarning qonuniyatlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Ustyurt regionida maydonlarida murakkab tog'-geologik sharoitida o'tkazuvchan tog' jinsi oralig'da ko'p qatlamli uyumlarni ajratish hamda tamponaj toshini kolonna va tog' jinsi bilan yopishishi sifati olingan.

Tadqiqotning predmeti tamponaj toshining mustahkamligini oshirishga va obsad kolonnalarni sementlashdan so'ng quvur orti muhitining mustahkamligini oshiradigan turli elementlardan iborat elangan porfirit kukunining (OPP) ta'sirini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida matematik statistika, modellashtirish va eksperimental tadqiqotlar usullari, shuningdek, izolyatsiyalash xususiyatini inobatga olgan holda mahalliy xomashyolar asosidagi tamponaj qorishmasining xususiyatlarini o'rganish bo'yicha tadqiqot ishlari majmuasi bilan bog'liq amaliy ma'lumotlarni taqqoslash, o'tkazuvchan tog' jinslarida obsad kolonnalarni mustahkamlik sifatini aniqlovchi asosiy omillarni baholash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

porfirit yordamida alohida sementlash orqali ko'p qatlamli uyumlarni bir-biridan sifatli ajratish texnologiyasi yaratilgan;

porfirritni o'z ichiga olgan yuqori mustahkamli tamponaj qorishmasi yordamida tamponaj toshining o'tkazuvchanligining pasayishi aniqlangan;

porfirit va kalsiy oksidini tamponaj qorishmasiga qo'shish orqali tamponaj toshining obsad kolonna va skvajina devorlariga yopishishi yaxshilanishi aniqlangan;

Ustyurt mintaqasining ko'p qatlamli uyumlari sharoitida ishlatish kolonnalarini sementlashda kengayuvchi tamponaj qorishmasidan foydalanish ilmiy asoslangan;

tamponaj toshining mustahkamligini oshiradigan porfirit hamda kengaytiruvchi qo'shimcha sifatida kalsiy oksidi asosida tamponaj qorishmasining samarali tarkibi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagidan iborat:

sement toshining mustahkamligini oshirish va uning o'tkazuvchanligini kamaytirish imkonini beruvchi yuqori mustahkamlikga ega tamponaj qorishmasi ishlab chiqilgan;

porfirit qo'shimchasini qo'shish bilan korroziyaga chidamli tarkibga ega

bo‘lgan tamponaj qorishmasi ishlab chiqilgan;

tamponaj toshini obsad kolonna va tog‘ jinsi bilan yopishishini aniqlash imkonini beradigan imitatsion stend yaratilgan;

sement qorishmasining tarkibiga va undagi kengayuvchi qo‘shimcha kalsiy oksidiga miqdoriga ko‘ra obsad kolonnaning mustahkamlik sifatining qonuniyatlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi O‘zbekiston Respublikasida mavjud bo‘lgan kengaytiruvchi qo‘shimcha sifatida kalsiy oksidi yordamida obsad kolonna va tog‘ jinsiga yopishishini yaxshilash maqsadida ishlab chiqilgan samarali tamponaj qorishmasidan foydalangan holda «O‘zbekneftgaz» AJning muayyan obyektlarida sement qorishmasi va sementlash ishlarining taklif etilayotgan texnologiyalarini joriy etishning amaliy natijalari bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi sementlash sifatiga yangicha yondashuvni o‘z ichiga olgan, shuningdek, skvajinalarni burg‘ilashning aniq sharoitlarida mahalliy xomashyo asosida tamponaj toshining mustahkamligini oshirish uchun qo‘shimchalarni qo‘llagan holda qatlamlarni bir-biridan ajratishda eng katta samaradorlikni olish maqsadida tamponaj qorishmasining fizik-mexanik va reologik xususiyatlarini aniqlashdan iborat hamda tamponaj toshining obsad kolonna va tog‘ jinsi bilan yopishishini mukammallashtirish uchun o‘tkazuvchan tog‘ jinslarida obsad kolonnalarni mustahkamlash sifatini aniqlash texnologiyani yaratish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qatlamni samarali ajratishni ta‘minlaydigan yuqori mustahkamlikka ega bo‘lgan tamponaj qorishmasi, shuningdek, tamponaj toshining mustahkamligini oshiradigan va quvur orti muhitining germetikligini ta‘minlaydigan turli elementlardan iborat yangi tarkibini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Obsad kolonnalarni sementlashda kolonna ortidagi sement halqasini mustahkamligini oshirishning chora-tadbirlarini ishlab chiqish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

porfiritni qo‘llash orqali yuqori samarali tamponaj qorishmasining tarkibi “Ustyurt URB” MCHJ maydonining Aralik 1-sonli skvajinasida joriy qilingan (“O‘zbekneftgaz” AJning 2023 yil 9-yanvardagi 04-24-12-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, OPPni qo‘llash yordamida obsad kolonnalarini sementlash halqa muhitining germetikligini 5% ga, tamponaj toshining mustahkamligini 2-3 marta oshirishga imkon bergan;

ko‘p qatlamli uyumlarni sementlashda o‘tkazuvchan qatlamlarni ajratish uchun kengayuvchi tamponaj sementi “Ustyurt URB” MCHJ maydonining Shimoliy Urga 2-sonli skvajinasida joriy etildi (“O‘zbekneftgaz” AJning 2023 yil 9-yanvardagi 04-24-12-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, kalsiy oksidi tamponaj toshining korroziyaga chidamliligini 11-13% ga, shuningdek, obsad kolonna va tog‘ jinsi bilan yopishishini 7% ga oshirib, 55 mln so‘m iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta

respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi: Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ishlar chop etilgan, jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, shundan 2 ta respublika hamda 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 4 bo'lim, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya hajmi 104 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari tafsiflangan, predmeti va usullari bayon qilingan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriy etilishi ochib berilgan, e'lon qilinganligi, ishning hajmi va tuzilmasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“O'zbekiston Respublikasi konlarining burg'ilash skvajinalarida qatlamlarning bir-biridan ajratishning zamonaviy holati”** nomli birinchi bobda obsad kolonnalarini tushirish orqali o'tkazuvchan qatlamlarni ajratishni, shuningdek, tamponaj toshini shakllantiruvchi tamponaj portlandsementi bilan sementlash holatlarini o'rganish bo'yicha olib borilgan kondagi tadqiqot natijalari tahlil qilindi.

Tamponaj toshining turli xil mustahkamlikka ega bo'lgan tarkiblarini tayyorlash va qatlamlarni ajratishda qo'llash o'rganildi. Ajratish paytida ishlatiladigan tamponaj qorishmalarining tuzilma tarkibi, fizik-kimyoviy va texnologik xususiyatlari keltirilgan.

Sementlashda o'tkazuvchan qatlamlarni ajratish maqsadida sementga yengillashtiruvchi, og'irlashtiruvchi qo'shimchalarini qo'shish bilan, shuningdek qo'shimchalarsiz tamponaj qorishmalarining turli xil tarkiblari qo'llaniladi. Biroq, shunga qaramay, aksariyat hollarda qatlamlarni ajratish sifati pastligicha qolmoqda. Shunday qilib, qatlamlarni ajratishdan keyin o'tkazilgan AKS ma'lumotlariga ko'ra, tamponaj toshining obsad kolonna K_k va tog' jinsi $K_{t,j}$ bilan yopishishi qoniqarli emasdi. O'tkazuvchan qatlamlarning qoniqarsiz ajratilishi tufayli obsad kolonnaning tashqi yuzasi va sement toshi o'rtasida kanallar hosil bo'ladi.


Bundan tashqari, burg'ulangan tog' jinsi bilan tamponaj toshi o'rtasida va tamponaj toshida va flyuid o'tkazuvchi kanallarda yoriqlar hosil bo'ladi. Natijada, qatlamdan keladigan gaz ushbu kanallar orqali ajratilgan o'tkazuvchan qatlamlarga yoki agar o'tish joyi bo'lsa, quduq ustigacha chiqishi mumkin (halqali bo'shliq mustahkamlangandan so'ng halqa muhitidagi kanallari orqali favvoralar bo'lgani ma'lum). 1-rasmda obsad kolonna va tog' jinsi bilan tamponaj toshining yopishish natijalari ko'rsatilgan.

Sement toshining obsad kolonnaga yopishishi



a

Sement toshining tog' jinsiga yopishishi



b


1-rasm. Sement toshining (a) obsad kolonna va (b) tog' jinsi bilan yopishishni tahlili

Rasmdan ko'rinib turibdiki, quduqlarda obsad kolonnalarni sementlashda o'tkazuvchan qatlamlarni ajratish maqsadida gilni sementga qo'shish bilan tamponaj qorishmalarining turli xil tarkiblari ishlatilgan. Qatlamlarni sifatsiz ajratish natijasida quyidagi jarayonlar sodir bo'lishi mumkin: gazning namoyon bo'lishi; qatlamlararo oqimlar; kolonna ortidan favvoralar.

O'tkazuvchan qatlamlarni sifatsiz ajratish natijasida bunday hodisalar qo'shimcha xarajatlarga yoki quduqlarni tugatishga olib keladi. Shu munosabat

bilan, o'tkazuvchan qatlamlarni ajratishga alohida e'tibor berish va barcha ilmiy, shuningdek ishlab chiqarish salohiyatini tamponaj toshining yopishishini yaxshilash uchun yo'naltirish kerak.

Dissertatsiyaning "**Qatlamlarni ajratish uchun tamponaj materiallarini tanlash va asoslash**" deb nomlangan ikkinchi bobida respublika sharoitida mavjud asosiy tamponaj qo'shimchalari va tamponaj qorishmalarining asosiy xususiyatlari, xususan, suv miqdori, suv ajratishi, zichlik, oquvchanlik, qotish muddatlari, quyush vaqti, sedimentatsiyaga mustahkamligi va qovushqoqligi ko'rib chiqilgan.



2-rasm. Porfirit tog' jinsining mikrofotografiyasi

Amalda qo'llanilayotgan sementlarning tarkibi keltirilgan, qatlamlarning qisqarishi (usadka) va sifatsiz ajratilishi tavsiflangan. Tahlil shuni ko'rsatdiki, gilni sement tarkibiga qo'shish qotish vaqtini tezlashtiradi va tamponaj toshining mustahkamligini pasaytiradi. Tamponaj qorishmalarining qotish muddatini boshlanishini sekinlashtirish masalalari ham ko'rib chiqildi.

Tamponaj sementining zichligi $3,1 \text{ g/sm}^3$, quyma zichligi 0,9 dan $1,1 \text{ g/sm}^3$ gacha ekanligi aniqlandi. O'tkazuvchan qatlamlarni sifatli ajratish uchun mahsuldor qatlam yotgan oraliqlarda tamponaj portlandsementini qo'llash hamda respublika sharoitida osonlik bilan topiladagan kalsiy oksididan kengaytiruvchi qo'shimchasi sifatida foydalanish taklif etildi. Tamponaj toshining mustahkamligini oshirish uchun sementga porfirit qo'shish zarur.

2-rasmda porfirit tog' jinsining mikrofotografiyasi keltirilgan.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, turli komponentlardan iborat tamponaj qorishmasini tayyorlash vaqtida porfiritni sementga qo'shish sementlash vaqtida hech qanday nojo'ya ta'sir ko'rsatmaydi.

Shundan kelib chiqqan holda, kengayuvchi tamponaj qorishmasi yordamida mahsuldor qatlamlarni oraliq intervalini ajratish va tamponaj toshining mustahkamligini sementga porfiritni qo‘shish orqali oshirish kerak.

Porfirit konlari haqida ma‘lumot 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Elaklash paytida g‘ovakli donalar o‘tadigan elak teshiklarining o‘lchamlari

Kon	Elak teshiklarining o‘lchamlari, mm						Elak orqali o‘tadigan qoldiq, 0,14 mm	Modul o‘lchami, Mk
	5	2,5	1,25	0,63	0,315	0,14		
	Nazorat elaklaridagi umumiy qoldiqlar, og‘irlik bo‘yicha %							
Sheyxdjelil	8,5	30,2	41,71	61,28	77,68	84,7	14,5	3,0
Karatau	5,4	25,5	34,0	74,5	83,0	87,2	12,0	3,04
Djimurtau	6,7	20,2	37,9	60,9	77,19	89,6	10,	2,86
Barxan qumi	100	100	0	5,3	12,1	65,9	16,5	0,83

Bu natijalar Amerikaning “Schlumberger” va “Holliburton” firmalari tomonidan 2004-2005-yillarda Zapolyaroe konida konduktor va ishlatish kolonnalarini o‘nta skvajinada “Tyumenburgaz” texnologiyasidan foydalangan holda sementlashda olingan ma‘lumotlarni taqqoslash orqali tasdiqlandi. «Xolliburton» kompaniyasining skvajinalarida o‘rtacha yopishish koeffitsienti $K_{o'r}$ 0,55 ga, «Schlumberger» kompaniyasini 0,55 va «Tyumenburgaz» filialiniki 0,52 ekanligi aniqlandi.

O‘tkazuvchan qatlamlarni ajratish maqsadida sementlash paytida sementlash uskunalarini bog‘lashning sxematik diagrammalari ishlab chiqilgan.

Ajratilgan qatlama qarab, oldingi kolonnaning boshmog‘i ostidagi chiqish uzunligi qisqa bo‘lishi mumkin. Bunda keyingi kolonnaning aksariyati oldingi kolonna ichida bo‘ladi shuning uchun bu holda kavaklar va gilli qobiqlar bo‘lmaydi. Biroq, tamponaj toshining keyingi va oldingi obsad kolonnalari yuzasiga yuqori sifatli yopishishiga erishish AKS qaydlariga ko‘ra barcha joyda kuzatilmaydi. Buning sababi shundaki, mavjud tamponaj qorishmalarini tayyorlash uchun ishlatiladigan tamponaj sementlari quyidagi sabablarga ko‘ra kolonnalararo muhitni sementlash talablariga javob bermaydi:

- qorishma hajmining maksimal pasayishi tamponaj toshining shakllanishidan keyin 5-7 % ni tashkil qiladi;

- tamponaj qorishmalarini haydash va prodavka paytida suyuqliklarning turbulent oqim rejimini yaratish mumkin emasligi;

- sement toshining shakllanishi paytida yoriqlar paydo bo‘lishi va boshqalar.


Laboratoriya sharoitida tamponaj toshini va obsad kolonnaga yopishishini sinab ko‘rish uchun laboratoriya sharoitida kolonnada obsad kolonnani simulyatsiya qiladigan konstruksiya yaratildi.

Sement toshining kengayishini o‘rganish uchun skvajina sharoitlarini simulyatsiya qiluvchi eksperimental stendning chizmasi va 3D modeli 3-rasmda keltirilgan. Qurilmaning konstruksiyasi katta diametrli obsad kolonnasining bir

qismi va kichik diametrli kolonnaning bir qismidan iborat. Konstruksiya oʻrnatilgandan soʻng ustunlararo boʻshliq PTS I-100 markali portlandsementidan tayyorlangan tamponaj qorishmasi bilan toʻldiriladi. Sementning qotishini kutish tugagandan soʻng tamponaj toshining hajmi 6 % ga kamaydi.

Kengayuvchi tamponaj sementini tayyorlashda kalsiy oksidi va porfirit ishlatilgan. Kalsiy oksidi va porfiritni tamponaj sement tarkibida bir xil taqsimlanishini taʼminlash uchun u bir necha marta aralashtirildi.

Sementning qotishini kutishdan ikki kundan soʻng konstruksiya tekshirildi. Tekshiruv tamponaj toshining obsad kolonnasi bilan yopishish "yaxshi" ekanini koʻrsatdi. Shunday qilib, kengaytiruvchi qoʻshimcha sifatida kalsiy oksidi boʻlgan kengaytiruvchi sement va mustahkamlikni oshiruvchi tamponaj toshining mustahkamligini oshirish uchun porfirit bilan sementlash obsad kolonnasi bilan tamponaj toshi orasida kanallarning paydo boʻlishiga yoʻl qoʻymaydi.



3-rasm. Skvajina sharoitida sement toshini kengayishini oʻrganish uchun eksperimental stand; a- sxemasi va b-3D-modeli

Quvurlararo boʻshliqni sementlashdan keyin yoriqlar paydo boʻlishi kuzatilmadi. Obsad kolonnani simulyatsiya qiladigan stendning demontaj qilingan tuzilishi 3-rasmda keltirilgan. Koʻrinib turibdiki, konstruksiya yuqori taglik va turli diametrli ikkita quvurdan iborat boʻlib, ularning halqali boʻshligʻi qopqogʻini yopib, boltlarni biriktirgandan soʻng sement qorishma bilan toʻldiriladi.


3-rasmda quvurlararo boʻshliqni sementlashdan keyin simulyatsiya qiladigan konstruksiya koʻrsatilgan. 3-rasmga koʻra, kalsiy oksidi va porfiritni oʻz ichiga olgan kengaytiruvchi tamponaj portlandsementi bilan sementlashda obsad kolonnalariga yopishish sof portlandsementga qaraganda yaxshiroqdir.

Dissertatsiyaning “**Qatlamlarni ajratish uchun tamponaj qorishmalarini ishlab chiqish va tadqiq etish**” deb nomlangan uchinchi bobda tamponaj qorishmasiga 50 % gacha porfirrit qo‘shilganda bu qorishma qotgandan so‘ng uni egilishga va siqilishga mustahkamligi tekshirib chiqildi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tamponaj qorishmasiga 30 % gacha porfirrit aralashtirilganda tamponaj toshining egilish va siqilish mustahkamligi ortib boradi, bu qorishmaga OPP miqdori 30 % dan oshganda uning mustahkamligi kamaya boshlaydi, qorishma tarkibida OPP miqdori 45 % ga etganda uning egilishga va siqilishga mustahkamligi mos ravishda 2,8 MPa va 5,7 MPa ga teng bo‘ldi. Tadqiqotlar asosida tamponaj qorishmalardagi sement toshining mustahkamligini oshirish uchun porfirritning optimal miqdori 30 % ni tashkil etishi ko‘rsatildi.


Tamponaj toshining mustahkamligini oshirish uchun tarkibiga OPP qo‘shilib ishlab chiqilgan tamponaj qorishmasi to‘grisidagi ma‘lumotlar 4-rasmda keltirilgan.

OPP miqdori bilan tamponaj qorishmasining strukturasi shakllantirish jarayonlariga qattiq faza, uning to‘yinganligi va tarkibi, struktura hosil qiluvchi birliklarning kristall panjarasining turi, zarralar va ularning shakli, kristallanish, izomorfik almashtirish imkoniyati, faol markazlar soni, bog‘langan suv va hokazolar ta‘sir ko‘rsatadi. Molekulyar og‘irlik, har bir atom orasidagi bog‘lanish kuchi, atomlar guruhi – bularning barchasi tamponaj toshining kuchini va shunga mos ravishda qatlamlarni ajratish paytida halqaning mustahkamligini oshirishning shartlaridir.

Tarkibida turli elementlar mavjud bo‘lgan OPP tamponaj qorishmasining mustahkamligini oshirishga va natijada obsad quvurlarini sementlashda quvur oralig‘i germetikligini oshirish imkoniyati aniqlandi.



a)



b)

4-rasm. Tamponaj toshining mustahkamligiga haroratning ta'siri, $t=75^{\circ}\text{C}$ da; a - siqilish mustahkamligi; b - egilish mustahkamligi



Kimyoviy tarkibi va xossalariga, shuningdek, tamponaj qorishmasida OPP miqdoriga bog'liq holda tamponaj toshining obsad quvuri va tog' jinslari bilan yopishishining ilmiy asoslari belgilab berildi. Bundan kelib chiqadiki, bir tomondan OPP strukturasi fazalar chegarasida ma'lum darajada sirt taranglik kuchiga ta'sir etsa, ikkinchi tomondan, tamponaj qorishmasida OPP ning mavjudligi bu qorishma ichida karkas hosil qiladi va qorishmaning toshga aylanshida u cho'kma hosil qiladi. Bu esa, o'z navbatida kolonna oralig'i germetikligini ta'minlab, tamponaj toshining mustahkamligini oshiradi.

Tamponaj qorishmasi va OPP ning mikrostrukturasi (EVOMA 15) mikroskopida o'rganib chiqildi. Tarkibida OPP bo'lgan tamponaj qorishmasi xususiyatlariga qarab tamponajning obsad quvuri va tog' jinslari bilan yopishishiga qattiq zarrachalar va suvga ta'sir etib, tamponaj qorishmasida suv - sement nisbatini belgilaydi.

Demak, tamponaj qorishmasiga OPP ni kiritish bir modda molekulalarining boshqa modda molekulalari bilan o'zaro taqsimoti masalasining oddiy yechimi emasligi aniqlandi. OPP tarkibidagi molekulalar tamponaj qorishmasidagi molekulalar bilan fizikaviy va kimyoviy bog'liqdir.

5-rasmda tarkibida OPP bo'lgan va polimerlar bo'lgan tamponaj qorishmalarining spektr tahlili keltirilgan. Rasmdan ko'rinishicha OPP aralashmasi kislorod va temir komponentlari 45,5 % ga mos keladi va qolgani boshqa komponentlar.


Shuni ta'kidlash kerakki, tamponaj qorishmasi tarkibidagi OPP miqdori uning texnologik va fizik-kimyoviy xususiyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi. Shuning uchun laboratoriyada tamponaj qorishmasi tarkibida OPP ning optimal miqdori tadqiq qilindi.



5-rasm. OPP tarkibli tamponaj qorishmasi IK-spektri

6-rasmdan ko‘rinib turibdi-ki, past OPP miqdori tamponaj qorishmasining quyuvlashishining boshlanish vaqti pastroq. Tamponaj qorishmasidagi OPP miqdori 25 dan 30 % gacha bo‘lganda quyuvlashishning boshlanish vaqti 1,25 dan 3,58 soatgacha oshgan.


Binobarin, o‘tkazilgan eksperimental tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tamponaj qorishmasidagi OPP miqdorining ko‘payishi bilan uning quyuvlashish boshlanish vaqti 25-30 % ga oshadi va tapmonaj qorishmasidagi OPP miqdorining eng maqbul miqdori hisoblanadi.



6-rasm. OPP miqdoriga nisbatan tamponaj qorishmasi qotishining boshlanish va oxirgi vaqtiga bog‘liqligi

Tarkibida PTS 1-100-60 %, kalsiy oksidi(CaO)-10% va tamponaj toshining mustahkamligini oshiruvchi porferit – 30 % bo‘lgan kengayadigan tamponaj qotishmasining tarkibi ishlab chiqildi. Shuningdek oraliq quvur boshmog‘idan 100 metr yuqorigacha berkitiladigan qatlam intervalini sementlash texnologiyasi ishlab chiqildi.

Tadqiqotlar qatlamlarni samarali ajratishni ta’minlovchi yuqori samarali tamponaj qorishasini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ishlar bilan bog‘liq. Tarkibida (CaO) kalsiy oksidi bo‘lgan sement toshining mustahkamligiga ta’siri o‘rganib chiqildi. Shuningdek, turli tarkibli tamponaj toshining mustahkamligini tadqiqotlash shuni ko‘rsatadiki, tamponaj toshiga kalsiy oksidi qo‘shilishi uning mustahkamligini sezilarli kamaytiradi. OPP qo‘shilishi natijasida, sement toshining mustahkamligi saqlanadi.



7-rasm. Kalsiy oksidi (CaO) bo‘lgan sement toshining mustahkamligi

7-rasmda OPP xomashyosi qo‘shilgan tamponaj qorishmasining tarkibi keltirilgan.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, porfirit tarkibidagi molekulalar fizikaviy va kimyoviy jihatdan o‘zaro bog‘liq hisoblanadi.

Bundan tashqari tarkibiga NPVR va KMS qo‘shilgan tamponaj toshlarining ham struktura hosil qilish jarayoni o‘rganilgan. Sement qorishmalarining qotishi sekinlashishiga klinker zarrachalar yuzasida molekulalar va faol markazlarning o‘zaro ta‘siri natijasida kompleks birikmalar hal qiluvchi ro‘l o‘ynaydi. U yoki bu aralashmalarning intensivligi sement minerallarining reaksiya qobiliyati kristallik panjaralari ionlari xarakteriga bog‘liq. KMS ga o‘xshagan qotish vaqtini samarali pasaytiruvchi ta‘sir mexanizmi asosan kompleks birikmalarining kimyosi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy usullari sementni to‘ldiruvchi kompozitsiyalarni struktura hosil qilishi jarayoni bilan bog‘liqligi chuqur o‘rganishga bog‘liq. Sement klinkerining va OPP qo‘shimchalarining hamma minerallari KMS ga o‘xshagan reaksiyani sekinlashtiruvchilar bilan ta‘sir etish qobiliyatlari nafaqat oddiy kimyoviy valentliklar, balki qo‘shimcha koordinatsion aloqalar bilan ham bog‘liq.

Sement zarrachalarining qotishini pasaytiruvchi organik molekulalar bilan ta‘sirida hosil bo‘lgan kompleks ichi birikmalari ikki aloqa turlari bilan birgalikda kompleks hosil qiluvchilar bilan birga bo‘lish imkoniyatiga ega. Tamponaj portlandsementdagi kremniy, amoniy va temirga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘lgan kalsiy ionlari sement zarrachalari bilan o‘zaro ta‘siri jarayonida hal qiluvchi ro‘l o‘ynaydi. Tamponaj sement tarkibiga OPP qo‘shilish natijasida reaksiya qandaydir yangi kristallik mahsulot hosil bo‘lishiga olib kelmaydi, lekin bunga qaramasdan bu tizimning mustahkamligi qo‘shimchasiz sementga nisbatan ancha yuqori va uning $Ca(OH)_2$ ga ta‘sir etib kalsiy gidrosilikatini hosil qilganligi sababli inert moddalarga kiritilmaydi. Gidrat hosil qiluvchilardan hosil bo‘lgan plyonka ekrani gidrotatsiya jarayoni kinetikasini sezilarli o‘zgartiradi.

Dissertatsiyaning **“Tarkibida porfirit bo‘lgan kengayadigan tamponaj qorishmasini kon sharoitida sinash”** mavzusidagi to‘rtinchi bobida o‘tkazuvchan qatlamlarni ajratishda tamponaj texnikasi izohlab berilgan. O‘tkazuvchan qatlamlarni ajratish uchun mos ravishda texnik holatdagi tamponaj texnikasi va xizmat ko‘rsatuvchi personalining me‘yoriy ishlashi talab qilinadi. Kalsiy oksidi va porfiritning tamponaj Portlandsement bilan qorishtirish texnologiyasi hamda tamponaj sementi tarkibida porfirit va kalsiy oksidi teng taqsimlanishi uchun ular aralastirgichga yuklatilgandan so‘ng uni yana boshqa aralastirgichga quyish kerak. Tushirilgan obsad quvurni kondukturlar yordamida yaxshilab sentratsiya qilinib, burg‘ulash eritmasini tamponaj qorishmasi bilan yaxshilab aralashishi uchun kaverna bor joylarda turbulizatorlarni o‘rnatish lozim. Bufer suyuqligi sifatida adgeziyani yaxshilash uchun filtratsion qobiqlari erozion yemiriladigan skvajina devorining g‘adir-budurligini oshiruvchi, yuvish va siqib chiqarish xususiyatiga ega bo‘lgan ko‘p fazali va ko‘p komponentli bufer suyuqligi ishlatiladi. O‘tkazuvchan qatlamlarni ajratishda, sementlashda va qorishmani haydash jarayonida suyuqliklarda turbulent rejimini ta‘minlash lozim. Obsad quvurlarini sementlashda fan va texnikaning zamonaviy imkoniyatlaridan foydalanish talab qilinadi. Obsad

quvurni sementlangandan so'ng sementni qotish muddatidan so'ng tamponaj toshi obsad quvuri va tog' jinslarining yopishishini aniqlash uchun quyidagi tenglamaga muvofiq AKS tizimi o'tkaziladi:

$$K = \frac{1xA + 0,7 xV + 0,3 x S + 0 x D}{A+V+S+D}; \quad (1)$$

bu yerda A,V,S,D – «yaxshi», «qisman», «qoniqarli» va «yomon» yopishish oraliqlari.

Araliq maydonidagi №1-quduq uchun AKS ma'lumotlariga ko'ra, $K_k=0,71$, ya'ni yopishish koeffitsienti – «qoniqarli». Boshqa taqqoslangan quduqlarda esa: №49-Surgil $K_k=0,49$, № 51-Surgil $K_k=0,43$, №1-Ershibay $K_k=0,33$ va №1-Tillali $K_k=0,41$ ni tashkil etadi, bunda $K_k = 0,33 \div 0,49$ bo'lganda, «yomon» yopishishni anglatadi.

Bundan kelib chiqib, Araliq №1-qudug'ida tamponaj toshini obsad kolonna bilan yopishishi №49-Surgil, №51-Surgil, №1-Ershibay va №- Tillali quduqlariga qaraganda 22-38% ga yaxshi.

Shunday qilib, o'tkazuvchan qatlamlarni ajratishda kengaytiruvchi qo'shimcha sifatida kalsiy oksidi va tamponaj toshining mustahkamligini oshirish uchun porfirit asosidagi tamponaj portlandsementini qo'llash tamponaj toshining mustahkamligini ta'minlashga yordam beradi. Porfiritni qo'llagan holda obsad kolonnalarini sementlashda bitta skvajinadan olingan iqtisodiy samaradorlik 55 mln. so'mni tashkil etdi.

XULOSA

«Obsad kolonnalarni sementlashda kolonna ortidagi sement halqasining mustahkamligini oshirishning chora-tadbirlarini ishlab chiqish» dissertatsiya mavzusi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi taklif va xulosalar olindi:

1. Skvajinani mustahkamlik sifatini oshirish maqsadida, porfirit va kalsiy oksidi asosida tamponaj qorishmasining kengayish jarayoni tadqiq qilingan.

2. Tog' jinsi va obsad kolonna bilan tamponaj toshining yopishishini yaxshilash uchun samarali tamponaj tarkibi ishlab chiqilgan.

3. Tamponaj toshining mustahkamligiga ta'sir etuvchi optimal tarkibning afzalligi aniqlangan. Ko'plab o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida neft va gaz skvajinalarning uzoq muddat ishlashi, agressiv muhitda tamponaj toshi mustahkamligi ta'minlanishi aniqlangan.

4. Mahsuldor qatlamlarni izolyatsiya qilish va obsad kolonnalarning mustahkamlik sifatini aniqlash, tog' jinsi va obsad kolonnasi bilan tamponaj toshining yopishqoqligini hisoblash uchun skvajinada obsad kolonnaning holatini imitatsiya qiluvchi eksperimental stendi yaratildi.

5. Nazariy tadqiqotlar natijasida mahalliy chiqindilar asosida yaratilgan eritmani qo'llagan holda, kutilmagan asoratlar yuzaga kelganda mustahkamlash sifatini oshirish uchun sementlash texnologiyasi yaratilgan.

6. Spektral tahlillar shuni ko'rsatdiki, ingredientlarning ion almashinuvi mexanizmi sement toshining o'tkazmasligini shakllantirishga yordam bergan.

7. Sement qorishmasining tarkibidagi turli xil ingredientlarning ta'sir qilish mexanizmlari aniqlangan, hamda qorishmaning reologik xossalari yaxshilangan, shuningdek suv-sement nisbati sezilarli darajada kamaytirilgan.

8. Araliq konidagi №1-skvajinada va Shimoliy Urga konidagi №2-skvajinada sanoat sinovlari o'tkazilgan. Kengayuvchi tamponaj qorishmasini qo'llash, tamponaj toshining obsad kolonna va tog' jinsi bilan yopishish darajasini hamda sement qorishmasining tarkibidagi kalsiy oksidi va porfirit hisobiga tamponaj toshining mustahkamligini oshirish orqali bir skvajinadan 55 000 000 so'm miqdorida iqtisodiy samaradorlikka erishildi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.23/25.08.2021.Т.136.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
АО «O‘ZLITINEFTGAZ»**

**КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ
БЕРДАХА**

ЕШМУРАТОВ АНВАР БАЛТАБАЕВИЧ

**РАЗРАБОТКА МЕР ПО ПОВЫШЕНИЮ ГЕРМЕТИЧНОСТИ
ЗАТРУБНОГО ПРОСТРАНСТВА ПРИ ЦЕМЕНТИРОВАНИИ
ОБСАДНЫХ КОЛОНН**

04.00.11 – Технология бурения и освоения скважин

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Министерства высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером В2022.3.PhD/Т3070.

Диссертация выполнена в Каракалпакском государственном университете имени Бердаха. Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.liting.uz) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Умедов Шерали Холлокович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Рахимов Акбархужа Камилевич
доктор технических наук, профессор

Нурматов Усан Довурович
кандидат технических наук, доцент

Ведущая организация:

Каршинский инженерно - экономический институт

Защита диссертация состоится «14» 02 2024 года в «14⁰⁰» часов на заседании разового Научного совета DSc 23/25.08.2021 Т 136.01 при АО «O'ZLITINEFTGAZ» (Адрес: 100029, г. Ташкент, ул. Тараса Шевченко, 2, тел.: (+99871)280-67-00, факс: (+99871)256-66-48; e-mail: liting@liting.uz)


С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре АО «O'ZLITINEFTGAZ» (регистрационный № _____) (Адрес: 100029, г. Ташкент, ул. Тарас Шевченко, 2, тел.: (+99871)280-67-00, факс: (+99871)256-66-48; e-mail: liting@liting.uz).

Автореферат диссертации разослан «01» 02 2024 года.
(реестр Протокола рассылки № 1 от «01» 02 2024 года).




У.С.Назаров
Председатель разового Научного совета по
присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, профессор


Т.О.Комилов
Ученый секретарь разового Научного
совета по присуждению ученых степеней,
доктор философии (PhD)


А.А.Закиров
Председатель разового Научного семинара при
Научном совете по присуждению ученых
степеней, доктор технических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире совершенствование строительства нефтяных и газовых скважин осуществляется с применением инновационных технологий добычи нефти и газа, повышением качества крепления обсадных колонн. Одной из основных актуальных задач является обеспечение надёжности изоляции затрубного пространства и разобщения пластов. От уровня надёжности крепления ствола скважины во многом зависит успех длительной эксплуатации скважины. В настоящее время после цементирования спущенных в скважину обсадных колонн нередко возникает затрубное нефтегазопроявление. В связи с этим проанализировано крепление скважин на некоторых месторождениях Устюрта и выявлена необходимость в совершенствовании технологии цементирования и разработке новых составов тампонажных растворов, что имеет важное теоретическое и практическое значение.

В настоящее время в мире проводятся целенаправленные исследования по повышению прочности цементного камня с целью снижения ее проницаемости для эффективного разобщения пластов, и хорошего сцепления тампонажного камня с обсадной колонной и горной породой. Исходя из этого, особое внимание уделяется созданию высокопрочной тампонажной смеси для повышения герметичности кольцевого пространства в условиях многопластовых залежей месторождений Устюртского региона.

В республике особое внимание уделяется эксплуатации долговечности нефтяных и газовых скважин повышением прочности цементного камня за кольцевым пространством. Это, в свою очередь, требует разработки мероприятий по постоянному совершенствованию технологии цементирования колонн и увеличению их прочности. В Стратегии¹ действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистана определена необходимость широкого внедрения в производство энергосберегающих технологий, повышения производительности труда в отраслях экономики, а также продолжения политики стимулирования производства для поднятия на новый технологический уровень деятельности отраслей промышленности. Исходя из этого, одной из важнейших проблем является создание новой технологии и разработка состава высокопрочных тампонажных смесей для крепления скважин, что является приоритетной и неотложной задачей, стоящей в нефтегазовой отрасли.

Проводимое исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указе Президента Республики Узбекистан №УП-4947 от 7 февраля 2017 г. «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», Постановлениях Президента Республики Узбекистан №ПП-2822 от 9 марта 2017 г. «Об утверждении Программы по увеличению добычи углеводородного сырья на 2017 – 2021 годы», №ПП-3107 от 30 июня 2017 г. «О мерах по совершенствованию системы управления

¹ Указ Президента Республики Узбекистан УП-4947 от 7 февраля 2017 года «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан».

